

IMZO TUSHUNCHASI BILAN BOG‘LIQ AYRIM MASALALAR

Sobirov Furqat Baxromboy o‘g‘li

*IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar
kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, y.f.b.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo‘lyozma imzoning nazariy tushunchasi bilan bog‘liq ayrim holatlar tahlil etilgani holda, ushbu tushuncha yuzasidan xatshunoslik ekspertizasi nazariyasi uchun mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xatshunoslik ekspertizasi, imzo, tasdiqlash, namuna.

Shaxsiy imzo hujjatning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, shaxslar imzo orqali ma‘lum bir hujjatlardagi o‘zlariga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlarni tasdiqlashadi. Imzolar hujjatlarni tasdiqlash uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan rekvizitlardan biri bo‘lganligi bois oddiy hujjatlarni imzolashdan tortib, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan hujjatlarni (qonunlar, farmonlar) imzolashgacha bo‘lgan deyarli barcha sohalarda qo‘llaniladi. Shu sababdan bo‘lsa kerak bugungi kunga kelib, hujjatlarni qalbakilashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarning aksariyati aynan o‘zga shaxs nomidan imzo qo‘yish orqali sodir etilgan jinoyatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Garchi, qo‘lyozma imzo bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarda aniq bir qoidalar ishlab chiqilmagan bo‘lsa-da, har bir mamlakatdagi davlat tili bo‘yicha yaratilgan izohli lug‘atlarda, kriminalist tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida imzolarga nisbatan nazariy tushunchalar keltirib o‘tilgan. Quyida mazkur tushuncha uchun ishlab chiqilgan ta‘riflar o‘rganib tahlil qilinadi:

O‘zbek tilining izohli lug‘atida imzo tushunchasi uchun quyidagi: Imzo – [qo‘l qo‘yish; tasdiqlash] Shaxsning o‘z qo‘li bilan maxsus yozuv-chizuv (shakl)da ifoda etilgan va uning o‘zi ekanini bildiruvchi belgi; qo‘l hisoblanadi degan mazmunda ta‘rif keltirib o‘tilgan [1]. Ojegovning izohli lug‘atida imzo familiyaning qo‘lyozma usulda yozilgan ko‘rinishi deb ta‘riflangan [2]. A.V.Atropov va L.V.Tarasovalar imzolar hujjatning majburiy rekvizitlaridan biri bo‘lib, familiyaning qo‘lda yozilgan ko‘rinishidir [3]. V.I.Dal imzolamoq bu - qo‘lni qo‘ying ... ismingizni, taxallusingizni, martabangizni va hokazolarni yozing, ya‘ni familiyangizni, ismingizni va hokazolarni ko‘rsatmoq” [4] – degan tushunchani keltirib o‘tgan.

Professor D.N.Ushakova imzoga nisbatan imzo bu– qo‘lyozma usulda bajargan shaxsning familiyasini matn ko‘rinishida yozilishidir [5] degan ta‘rifni ishlab chiqqan bo‘lsa, A.A.Eliseyev imzo bu – hujjatlarni tasdiqlash uchun shaxsning familiyasini qo‘lyozma usulda aniq yoki noaniq, to‘liq yoxud qisman harfli, harfsiz elementlardan tashkil topgan grafik tasviridir deb tarif bergan [6]. Rossiyalik kriminalist tadqiqotchi

V.V.Lipovski imzo bu – ijrochi shaxsini anglatuvchi va uning nomidan tasdiqlash maqsadida bajarilgan grafik chizma degan nazariy qarashni ilgari surgan [7].

L.F.Solnseva imzoga nisbatan imzo bu – ma’lum bir hujjatdagi ma’lumotlarni o’zi nomidan tasdiqlash maqsadida bajarilgan hamda shaxsning ismi yoxud familiyasini bildiruvchi grafik tasvirdir degan mazmunda ta’rifni keltirib o’tgan [8]. Rossiyalik mashhur xatshunos tadqiqotchilar L.A.Vinberg va M.V.Shvankovalar imzoga “grafik belgilar va qo’lyozma yozuvning ayrim belgilarini o’zida aks ettirgan grafik yozuv hisoblanadi” degan mazmunda ta’rif berishgan. SHuningdek, imzo tushunchasi shaxs nomidan tasdiqlash uchun foydalanilishini ham e’tirof etishgan [9]. Rossiyalik yana bir xatshunos tadqiqotchi olimi V.F.Orlova esa qo’lyozma imzolarga quyidagicha o’z mualliflik izohini bergan: “... imzo – bu tasdiqlash belgisi sifatida xizmat qilish uchun mo’ljallangan familiyaning qo’lda yozilgan belgisidir” [10].

A.V.Antropov, D.V.Baxteyev, A.V.Kabanovlar imzo bu - shaxs tomonidan ma’lum bir hujjatga tasdiqlaganligi, xabardor ekanligi va yoxud boshqa maqsadlarda qo’yilgan tasdiqlash belgisidir degan mazmundagi ta’rifni keltirib o’tishgan [11]. Sh.Komilov, R.Maxmudov, Sh.Xasanovlar esa imzo bu - familiyaning biror-bir hujjat yoki xatdagi o’z qo’li bilan yozilgan grafik tasviridir degan ta’rifni keltirib o’tishgan [12]. Mamlakatimizning kriminalist tadqiqotchilaridan biri bo’lgan B.X.Mamadaliyev imzo bu – aniq shaxsga tegishli bo’lgan, o’zida grafik ma’lumotlarni aks ettirgan va tasdiqlash yoki rozilik berish maqsadlarida bajariladigan dastxat [13] deb ta’rif bergan.

Yuqorida bir qator milliy va xorijiy manbalarda imzolarga nisbatan ishlab chiqilgan nazariy tushunchalar keltirib o’tildi. Mazkur keltirib o’tilgan ta’riflar asosan subyektiv qarash mahsuli ekanligini, ushbu tushunchalarning hech biri ma’lum bir normativ-huquqiy hujjatlar asosiga yaratilmaganligini inobatga olsak, bu ta’riflarning turli-tuman ekanligini tushunish qiyin emas. SHu o’rinda mazkur ishlab chiqilgan ta’riflar xatshunoslik ekspertizasining obyektivi sifatida imzolarning to’liq xususiyatlarini o’zida aks ettiradimi degan o’rinli savol yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur savolga javob tariqasida yuqorida keltirib o’tilgan ta’riflar o’zida imzolarning to’liq xususiyatlarini yetarlicha aks ettirmayotganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunga esa o’z navbatida quyidagi bir qator omillarni sabab sifatida keltirib o’tish mumkin bo’ladi:

Birinchidan: deyarli barcha ta’riflarda imzolar ma’lum bir shaxsning familiyasi, ismidagi mavjud bo’lgan harflardan tashkil topishi to’g’risidagi qarashlar ilgari surilgan;

Ikkinchidan: L.A.Vinberg, M.V.SHvankova, V.F.Orlova, B.X.Mamadaliyev, A.V.Antropov, D.V.Baxteyev, A.V.Kabanov va boshqa yana bir qator tadqiqotchilar

tomonidan imzolar tasdiqlash belgisi sifatida ishlatilishi to‘g‘risidagi nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Nimagadir imzoga ishlab chiqilgan nazariy qarashlarning deyarli barchasida imzolar uning ijrochisi bo‘lgan shaxsning familiyasi, ismidagi mavjud bo‘lgan harflardan tashkil topishi to‘g‘risidagi qarashlar keltirib o‘tilgan. Biroq, xatshunos ekspertlik amaliyoti bugungi kunda shaxslar tomonidan bajarilayotgan imzolar har doim ham uning ijrochisi bo‘lgan shaxsning ismi, familiyasi yoxud otasining ismidagi harf elementlaridan tashkil topmayotganligini ko‘rsatmoqda.

Fikrimizcha, har qanday muammoni bartaraf etish uchun dastlab uning nazariy asoslarini to‘g‘ri talqin qilish lozim bo‘ladi. SHu maqsadda imzolarning nazariy qarashlarini umumlashtirish, mazkur sohada mavjud bo‘lgan turlicha yondashuvlarni bartaraf etish hamda imzo tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadida qo‘lyozma imzo tushunchasiga quyidagicha to‘liq mualliflik izohi tavsiya etiladi:

Imzo - bu qo‘lyozma usulda bajarilgan va mazmuni muallifigagina ayon bo‘lgan harfli, harfsiz, aralash, qo‘shimcha element(shtrix) va (yoki) monogrammalardan tashkil topishi mumkin bo‘lgan sodda, murakkab yoxud oddiy shakldagi grafik tasvirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izoxli lug‘ati ikkinchi jildi(E-M) – Toshkent.2020 – B.201.
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка: Ок. 57000 слов / Под. ред. чл.-корр. АН СССР Н.Ю. Шведовой. 19-е изд., испр. М.: Рус. яз., 1987. 750 с.
3. Атропов. А.В., Л.В. Тарасова К вопросу о необходимости нормативного закрепления понятия «подпись» в современном законодательстве – Вопросы Российской юстиции № 6 – Москва 2018.
4. http://calligraphy-expo.com/aboutcalligraphy/signature_history.
5. Толковый словарь русского языка / под ред. Проф. Д.Н. Ушакова. М., 1939. Т. 3.425 с.
6. Елисеев А.А. Подпись как почерковое начертание и Теория и практика криминалистической экспертизы. Сборник №3. М.: Госюриздат, 1959. С. 6-13.
7. Судебно-почерковедческая экспертиза. Часть II : Пособие для экспертов почерковедов и судебно-следственных работников. М.: ВНИИСЭ, 1971. 334 с.
8. Солнцева Л.Ф. Идентификация личности по подписям: Учебно-методическое пособие. М.: Высшие курсы усовершенствования юристов, 1960. 41 с.
9. Винберг Л.А., Шванкова М.В. Почерковедческая экспертиза// учебное пособие Волгоград, 1977. С. 78
10. Орлова. В.Ф. Судебно-почерковедческая экспертиза: Общая часть: теоретические и методические основы // - М:2006-с334

11. Антропов А.В., Бахтеев Д.В., Кабанов А.В. Криминалистическая экспертиза: учебное пособие / Издательский дом Уральского государственного юридического университета Екатеринбург.2017. 163 с.
12. Komilov.Sh., Maxmudov.R., Xasanov.SH. “Xatshunoslik ekspertizasi” ma’ruzalar kursi – T.2013.
13. Mamadaliyev B.X. “Imzo tushunchasi, tarkibi va identifikacion belgilari” – Toshkent 2021 - B.35.

